

Oriental Journal of Education **SJIF for 2022:6****THE POLICY OF ZONING IN THE SOVIET STATE IN THE 60-80S OF THE XX CENTURY AND THE ROLE OF UZBEKISTAN IN IT****Zamira Toirova***Master's student**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Soviet, economy, politics, Uzbekistan, state.**Abstract:** The article provides an analysis of the policy of zoning in the Soviet Union in the 60-80s of the twentieth century and the role of Uzbekistan in it.**Received:** 13.06.22**Accepted:** 15.06.22**Published:** 17.06.22**XX ASRNING 60-80-YILLARIDA SOVET DAVLATIDA RAYONLASHTIRISH SIYOSATI VA UNDA O'ZBEKISTONNING ROLI****Zamira Toirova***Magistratura talabasi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Sovet, iqtisodiyot, siyosat, O'zbekiston, davlat.**Annotatsiya:** Maqolada XX asrning 60-80-yillarida Sovet davlatida rayonlashtirish siyosati va unda O'zbekistonning roli mavzusida tahlili ma'lumotlar berilgan va muhokama qilingan.**ПОЛИТИКА РАЙОНИРОВАНИЯ В СОВЕТСКОМ ГОСУДАРСТВЕ В 60-80-Е ГОДЫ XX ВЕКА И РОЛЬ В НЕЙ УЗБЕКИСТАНА****Замира Тоирова***студент магистратуры**Национальный университет Узбекистана**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Советский, экономика, политика, государство.**Аннотация:** В статье проводится анализ политики зонирования в Советском Союзе в 60-80-х годах XX века и роли в ней Узбекистана.

KIRISH

Iqtisodiy rayon iqtisodiy va tabiiy sharoitlari o'xshash bo'lgan, tarixan tarkib topgan va ma'lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hudud hisoblanadi. Hududiy mehnat taqsimoti va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Bunday rayonlar esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ilgari iqtisodiy rayonlashtirish xalq xo'jaligini rejalashtirish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda bunday jarayonlar ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, ishlab chiqarish kuchlarini tartibga solib borish va boshqarish uchun zarurdir. Shuningdek, iqtisodiy rayonlarsiz mamlakat xo'jaligining ichki tuzilishi va hududiy tarkibini o'rganish ham murakkab hisoblanadi. Iqtisodiy rayonlashtirish davlat hududining ulkan yoki kichik ekanligiga bog'liq emas. Asosiysi, iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan bo'lishi kerak. Ichki tafovutlar qanchalik ulkan bo'lsa, iqtisodiy rayonlar qatori va tizimi ham shuncha rivojlangan bo'ladi. Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o'zaro uyg'unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Zero, har qanday iqtisodiy rayon yoki mintaqa biror bir xo'jalik tarmog'ining boshqa joylarga qaraganda shu rayonda ko'proq to'planganligi, rivojlanganligi bilan izohlanadi.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy rayonlashtirish siyosati ko'plab G'arb mamlakatlari qatori O'zbekiston hududida ham amalga oshirilgan. G. N. Cherdansev, N. G. Sapenko, V. M. Chetirkinlarning ilmiy ishlarida respublika hududini Iqtisodiy rayonga bo'lish masalalari bo'yicha ayrim qarashlar olg'a surilgan. Respublikamiz hududini iqtisodiy rayonlarga bo'lish bo'yicha amaliy ishlar XX asrning 60-yillarida O'zbekiston FA Iqtisodiyot instituti tomonidan amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston na siyosiy, na iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan Sobiq Ittifoqning ajralmas qismi bo'lganligi sababli markaz tomonidan ishlab chiqilgan besh yillik rejalarni amal qilishga majbur edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ham mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirishning besh yillik rejalarda respublikalar iqtisodiyotini rivojlantirish umumiy davlat manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilardi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot asosida ishlab chiqarish monopoliyalari shakllantirildi. Natijada, monopoliya iste'molchilardan tanlash huquqini tortib oldi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin, kommunizmning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va mehnatkashlar turmush darajasini yaxshilash vazifasini qo'ygan Sovet hukumati 15 yillik xalq xo'jaligini rivojlantirishning "istiqbolli" rejasini qabul qiladi. Bu davrda Sovet davlati hududida 13 ta iqtisodiy rayon bor edi. Sovet davlatida iqtisodiy rayonlashtirish 1960-yilgacha davom ettirildi. 1960-yilga kelib SSSR hududida iqtisodiy rayonlar soni 16 taga yetkazildi. Keyinchalik yangi yerlarning o'zlashtirilishi va sanoat korxonalarining kengayishi bilan iqtisodiy rayonlar soni ham ortib bordi. Masalan, 1961-yilda ularning soni 17 taga yetgan bo'lsa, 1963-yilga kelib 18 tani tashkil etgan.

XX asrning 60-yillarida O‘zbekiston SSR hududida 5 ta : Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon, Quyi Amudaryo va Surxondaryo singari iqtisodiy rayonlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, Rossiyada 10 ta, Ukrainada 3 ta, Belorussiya va Qozog‘istonda bittadan, ba’zida esa bir nechta Respublikalar birlashib bitta iqtisodiy rayon tashkil etganlar. Masalan, Kavkaz orti iqtisodiy rayoni, Boltiqbo‘yi iqtisodiy rayoni va O‘rta Osiyoning iqtisodiy rayonlari shular jumlasidandir.

Sovet davri tarixiga oid ba’zi manbalarda rayonlashtirish siyosati boshqacha tasniflangan. Masalan, AQShning Luiziana shtat universiteti siyosiy fanlar professori Piter Svik sobiq Sovet Ittifoqining iqtisodiy rivojlanishida mamlakat hududini 4 ta iqtisodiy mintaqaga ajratgan:

- Yevropa – slavyan mintaqasi: Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova;
- Boltiqbo‘yi mintaqasi — Latviya, Litva, Estoniya;
- Kavkaz orti mintaqasi: Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon;
- Markaziy Osiyo mintaqasi: O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston.

Shuningdek, A.V. Shubin o‘zining ““Turg‘unlik”dan islohotlargacha. 1917-1985-yillarda SSSR” nomli kitobida davlat iqtisodiy rayonlarini 4 ta guruhga bo‘ladi:

- Boltiqbo‘yi davlatlari – kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini saqlab qolgan sanoat rayoni;
- Rossiya, Ukraina, Belorussiya – sotsialistik rivojlanish yo‘lidan borayotgan sanoat rayoni;
- Kavkazorti va Moldova – ishlab chiqarish rivojlanayotgan qishloq xo‘jaligi sanoat rayoni;
- O‘rta Osiyo va Qozog‘iston – ishlab chiqarish an‘analarini saqlab qolgan agrosanoat mintaqasi.

Shu bilan bir qatorda olim va iqtisodchi N.S. Ziyodullaev, bu tipdagi xo‘jalik boshqaruvi “xalq xo‘jaligini tarmoqlarga bo‘lib, rejalashtirish asosida sotsialistik xalq xo‘jaligini boshqarishning parchalanishiga yo‘l qo‘ymaydi”, deb ta’kidlagan.

O‘rta Osiyo SSSRning asosiy iqtisodiy rayoni bo‘lib, bu yerda asosan, paxtachilik uchun qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish rivojlangan. O‘rta Osiyoning iqtisodiy rayonlari tarkibiga O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi respublikalar kirdi. O‘rta Osiyoda hududiy mehnat taqsimotiga ko‘ra, bu hududda xomashyo kompleksini o‘zlashtirish rejalashtirilgan edi.

Masalan, “Paxta” dasturi ma’lum bir aniq maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, u 11 qismdan iborat edi. Xususan, paxta maydonlarini kengaytirish, paxta hosildorligini oshirish, yagona xalq xo‘jaligini sifatli xomashyo bilan ta’minlash, xomashyo sifatini saqlash, paxta mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, suv zaxirasidan to‘g‘ri foydalanish va yuqori darajada suv ta’minotini amalga oshirish, yerlarning qayta ishlab chiqarilishini ta’minlash, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatadigan kompleksning iqtisodiyot tarmog‘ini rivojlantirish, paxta yetishtirishning texnik bazasini

mustahkamlash, xalq xo‘jaligi paxta majmuasining iqtisodiy uslubini takomillashtirish, xalq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish va boshqalar.

O‘zbekiston Ittifoq hududidagi paxta xomashyosining yarmidan ko‘p qismini yetishtirib bergan. Shuning uchun ham markaz tomonida O‘zbekistonga, undagi iqtisodiy o‘zgarishlarga alohida e‘tibor berilgan. Umuman olganda, O‘zbekiston sobiq SSSR hududining 2 foizini egallagan. Bu yerda butun Ittifoq aholisining 5,1 foizi istiqomat qilgan. O‘zbekistonning tabiiy holati turlicha bo‘lib, umuman olganda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun juda qulaydir.

Respublikada keng maydonlarni egallagan tekisliklar, cho‘lning sersuv qumlari, tog‘lar, yer osti va boshqa tabiiy boyliklar mavjud bo‘lib, boshqa Ittifoq respublikalari qatorida u o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Respublika 1960 yilga kelib aholi soni bo‘yicha sobiq Ittifoq respublikalari orasida RSFSR, Ukraina, Qozog‘istondan keyin to‘rtinchi, O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining to‘rt respublikasi orasida esa birinchi o‘rinni egalladi. Paxtachilikka ixtisoslashgan O‘zbekiston SSSR sanoatiga mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga, paxta tozalash, to‘qimachilik sanoatiga, to‘qimachilik sanoati uchun mashina va jihozlar yetkazib beruvchi korxonalar hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan.

Darvoqe, shuni aytish kerakki, O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari turli guruhlariga bo‘lingan. Masalan, “O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi strukturasi takomillashtirish” kitobida O‘zbekiston mintaqaviy ixtisoslashuviga ko‘ra 6 ta iqtisodiy rayonga bo‘lingan bo‘lib, bular Buxoro – Qizilqum, Quyi Amudaryo, Samarqand – Qarshi, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘onadir. “O‘zbekiston sanoat tuzilmasidagi progressiv yutuqlar” monografiyasida O‘zbekiston beshta iqtisodiy rayonga bo‘lingan: Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon (Janubi-G‘arbiy), Quyi Amudaryo, Surxondaryo (Janubiy). Bu iqtisodiy rayonlarga quyidagilar kiradi: Toshkent viloyati — Toshkent va Sirdaryo viloyatlari; Farg‘ona viloyati – Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari; Zarafshon viloyati — Samarqand, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi, Janubiy viloyat — Surxondaryo viloyati. Adabiyotlarda iqtisodiy rayonlar soni turlicha ko‘rsatilgan, bu esa sovet iqtisodiy siyosatining o‘ta oqsoq bo‘lganligini, o‘sha vaqtda O‘zbekiston SSR iqtisodiyotining ushbu iqtisodiy rayonlarida joylashgan asosiy ishlab chiqarish kuchlari og‘ir ahvolga tushib qolganligini tasdiqlaydi. Mazkur iqtisodiy rayonlarning bir qishloq xo‘jaligi maydoniga (xom ashyosiga) e‘tibor qaratilishi munosabati bilan turli oziq-ovqat va sanoat tovarlari asosan tashqaridan keltirilib, respublika ehtiyoji 50 foizga qondirilgan.

Shuningdek, bu iqtisodiy rayonlarning xususiyatlari va fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi ham har xil edi. Masalan, Toshkent va Farg‘ona iqtisodiy rayonlari sanoat ishlab chiqarishi kadrlari, yirik umumiy mahsulot va sanoatning asosiy fondlari hamda Respublika miqyosida ishlab chiqarish unumdorligi bilan ajralib turardi. Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston

zarur resurslar va imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, sanoatni rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha barcha jabhalarda ortda qolishdi.

O'zbekistonning janubida joylashgan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining asosiy sanoat hududlari ham paxtachilikka ixtisoslashgan bo'lib, paxtani qayta ishlash sanoati Qashqadaryoda 51, Surxondaryoda 56 foizni tashkil etardi. Quyi Amudaryo va Surxondaryo iqtisodiy rayonlari quyi darajada rivojlangan Toshkent iqtisodiy rayonidan 4 barobar, Farg'ona iqtisodiy rayoniga nisbatan 2 barobar kam rivojlangan edi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning ekin yerlari asosan toza, oddiy tuproq edi. Lekin hosilni ko'paytirish va yer unumdorligini oshirish maqsadida yerlar kimyoviy o'g'itlar bilan zaharlana boshladi. Qadim zamonlarda aholi yerni daryolar suvi bilan sug'organ, uning tarkibiga o'simliklar uchun loy bilan bir qatorda turli xil foydali moddalar kelib tushgan, ular yerga kuch qo'shgan, bu loy tufayli yer qatlami ko'paygan va bu hududlarda nomutanosiblik yuzaga kelmagan. Rejali iqtisodiyot va rejali boshqaruv yillarida xomashyo unumdorligini oshirishga intilish kuchaydi. Yangi sug'orish inshootlari qurila boshlandi. Natijada bir joyda turgan va tarkibida mineral o'g'itlari bo'lmagan sovuq suvdan ham yetishtirilayotgan hosilni sug'orishda foydalanish boshlandi. Shu sababli, vaqt o'tishi bilan maydonlar ingichka bo'lib, yer unumdorligining imkoniyatlari pasayib, eroziya kuchaygan. Natijada yerga ko'p miqdorda o'g'it solinmaguncha, mo'l hosil olishning iloji bo'lmay qoldi, ishlatiladigan o'g'it miqdorini oshirish orqali tuproqda yo'qotilgan moddalarni ko'paytirish boshlandi. 1984 yilga kelib respublikada 600 ming gektar yer meliorativ ishlarga muhtoj edi. O'zbekistonda har gektar yerga o'rtacha 600 kilogramm mineral o'g'it sarflanardi va bu jahonda qabul qilingan me'yordan 20-30 barobar ko'p edi. Darhaqiqat, bu o'g'itlarning deyarli 60 foizi asosan so'rilmaydigan, tuproq maydonida qoladigan va yerning tarkibini buzadigan moddalar bo'lgan.

XULOSA

Umuman olganda, O'zbekiston umumittifoq mehnat taqsimotida iqtisodiy mavqeyi rivojlangan respublikalardan biri sifatida iqtisodiyotning ilg'or sohalarida o'ziga xos imkoniyat va sharoitlarga ega bo'lsa-da, bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmadi. Rivojlanishdagi bu nomuvofiqliklar va nuqsonlar xalq xo'jaligi hududlari tarkibida katta qiyinchiliklarning sabablariga aylandi. Sobiq ittifoq iqtisodiyoti va siyosatining rivojlanishi munosabati bilan qishloq xo'jaligida o'zgarishlar amalga oshirildi, respublika qishloq xo'jaligida paxta mustabidligini yanada rivojlantirish choralari ko'rildi. Paxta maydonlarini to'xtovsiz kengaytirish, hosildorlikni oshirish, har qanday sharoitda reja va majburiyatlarni bajarish, qishloq xo'jaligida ekstensiv usullarni qo'llash, ma'muriy-byurokratik tizimni kuchaytirish nazarda tutildi. Natijada O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha birinchi o'rindagi xomashyo zaxirasi hududiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тухлиев Н. Трудный путь перехода на рынок. – Ташкент. Узбекистан, 1999. – С. 69.
2. Досумов Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования, — Т.: «Фан», 1990. – С. 24.
3. Зиядуллаев Н.С. Моделирование региональных экономических систем. – М.: «Наука», 1983. – С. 10-11.
4. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917 — 1985 гг. – М.: РОССПЭН, 2001. – С. 135.
5. Зиядуллаев Н.С. Моделирование региональных экономических систем. – М.: «Наука», 1983. – С. 120.
6. Экономические проблемы комплексной программы «Хлопок». – Ташкент: Фан, 1981. – С. 122.
7. Совершенствование структуры народного хозяйства Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1987. – С. 72.
8. Прогрессивные движения в промышленной структуре Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1974. 166 листов.
9. Досумов Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования. – Т.: Фан, 1990. – С. 12.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_rayon